

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA HARBIY SOHADA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHATLARNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

RAXMANOV FARRUX ERKINOVICH

*pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent*

“Eng bebaho oliy ne‘mat – tinchligimiz va osoyishtaligimizning qadriga yetishimiz, oilalarimiz, farzandlarimiz, kelgusi avlodlarimizning baxtu kamoli uchun bu ulug‘ boylikni asrab-avaylashimiz lozim. Shu maqsadda yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ona yurtga mehri va sadoqatini oshirishga yanada ko‘proq ahamiyat berishimiz kerak”
Shavkat Mirziyoyev

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida harbiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Unda mamlakat mudofaa salohiyatini mustahkamlash, Qurolli Kuchlarni modernizatsiya qilish, harbiy xizmatchilarning jangovar va kasbiy tayyorgarligini oshirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini harbiy sohaga joriy etish hamda harbiy ta’lim tizimini takomillashtirish masalalariga e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, harbiy islohotlar, mudofaa siyosati, Qurolli Kuchlar, mudofaa salohiyati, harbiy modernizatsiya, jangovar tayyorgarlik, harbiy ta’lim, harbiy xizmatchilar, ijtimoiy himoya, vatanparvarlik, xalqaro harbiy hamkorlik, milliy xavfsizlik..

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning yaqinda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida ushbu chaqiriq baralla yangradi. Davlatimiz rahbari ayni ezgu maqsadlar ijobati yo‘lida Qurolli Kuchlarimiz jangovar salohiyatini oshirish borasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga alohida e’tibor qaratilayotganini ta’kidladi.

Shu ma’noda, yoshlarimizning ona yurtga mehri va sadoqatini oshirishga yanada ko‘proq ahamiyat berish oldimizdagi kechiktirib bo‘lmaydigan muhim vazifalardandir. Zero, bugungi globallashuv va keskin raqobat davri, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojaro va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar bizdan doim ogoh va hushyor bo‘lishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizning barcha hududlarida 14 yanvar – Vatan himoyachilari kuni, shuningdek, Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganining 34 yilligi milliy bayram sifatida keng nishonlangani bejiz emas. Binobarin, ayni vaqtda tinch va osoyishta, farovon hayotimiz Qurolli Kuchlarimiz tomonidan ishonchli tarzda himoya qilinmoqdaki,

mana shunday mas'uliyatli burchni sidqidildan ado etayotgan, taraqqiyotimiz barqarorligiga kamarbasta bo'layotgan o'g'lonlarimizni har qancha e'zozlasak, ardoqlasak arziydi.

Qurolli Kuchlar tashkil etilgan sana va Vatan himoyachilari kuni bilan bog'liq bayram tadbirlari – harbiylarimizni sharaflash, milliy armiyamizning ma'naviy qudrati haqida so'z yuritishning ayni fursatidir. Inchinun, biz oriyat va g'ururni hamma narsadan ustun qo'yadigan, lafzi halollikni shon-shavkat deb biladigan, bir so'zli xalqimiz.

Shu nuqtai nazardan, soha ekspertlari e'tirof etganlaridek:

mamlakatimiz mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlash va Qurolli Kuchlarimiz qudratini oshirish Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangani juda muhim. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda Qurolli Kuchlarimiz qo'mondonlik tarkibi joylardagi hokimiyat idoralari va xalqimiz bilan birgalikda bir tanu bir jon bo'lib harakat qilayotir;

bunda, eng avvalo, harbiy xizmatchilar, ayniqsa, komandirlar tarkibining professional tayyorgarligini oshirish milliy armiyani yanada rivojlantirishning eng muhim sharti hisoblanadi. Shu jihatdan, Qurolli Kuchlar Bosh shtabi hamda harbiy okruglar boshqaruv apparatlari ofitserlarini, brigada komandirlari va ularning o'rinbosarlarini o'qitish bo'yicha Qurolli Kuchlar Akademiyasida yangi tizim yo'lga qo'yilib, soha uchun kadrlar tayyorlashda nazariya va amaliyotni imkon qadar yaqinlashtirish choralari ko'rilmogda;

milliy armiyamizni zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnikalar bilan ta'minlash bo'yicha kompleks dasturlarni tayyorlashda bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida kuzatilayotgan harbiy mojarolar xususiyatlari, qo'shinlarni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari hisobga olinmogda. Bu borada eng zarur qurol-aslaha va anjomlarni sotib olish, ularni yangi jangovar tizimlar bilan birgalikda qo'llash va takomillashtirib borish masalasi davlatimizning doimiy e'tiborida turibdi;

harbiy xizmatchilarning jangovar ruhi, intellektual salohiyatini yuksaltirish, aholi, birinchi navbatda, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, Qurolli Kuchlarimiz faxriylarini ijtimoiy va huquqiy jihatdan muhofaza qilishni kuchaytirish borasidagi ishlar izchil davom ettirilyapti. Bu mas'uliyatli jarayonlarda butun jamiyatimiz, jumladan, Qurolli Kuchlar tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlarda "Inson qadri uchun" degan muhim tamoyil birinchi o'ringa qo'yilayotgani e'tirofga sazovor;

hayotimizning barcha jabhalarini qamrab olayotgan shiddatli va jadal o'zgarishlar asnosida yurtimizda harbiy xizmatning obro'-e'tibori, armiya va xalq birligi yangicha mazmun-mohiyat bilan boyitilmogda. Natijada yoshlarimiz ong-shuuri va qalbida armiya bilan faxrlanish tuyg'usi, Vatan himoyachisidek olijanob kasbga hurmat-ehtirom hissi yanada kuchaymogda;

so'nggi yillarda harbiy qism va poligonlardagi infratuzilma, askar va ofitserlarning sharoitlari yaxshilandi. Xususan, ko'plab harbiy xizmatchilar imtiyozli kreditlar asosida uy-joy bilan ta'minlandi. Ular xizmat muddatini o'tab bo'lganidan keyin ish va tibbiy xizmatlar bilan ta'minlanishi ham e'tibordan chetda qolmayapti.

Bundan tashqari, 2025-yil 1-iyundan boshlab 10 yildan ortiq stajga ega harbiy xizmatchilarga uy-joy qiymatining 35 foizi miqdoridagi boshlang'ich badal davlat byudjeti va idora mablag'lari hisobidan to'lab berilishi ham harbiy sohada amalga oshirilayotgan ijobiy islohatlar desak mubolag'a bo'lmaydi.

Shunday qilib, keyingi yillarda amalga oshirilgan tub islohotlar tufayli tarixan qisqa davrda O'zbekiston Respublikasi suvereniteti va hududiy yaxlitligini, sarhadlarimiz daxlsizligini ishonchli himoya qilishga qodir bo'lgan, tezkor va ixcham milliy armiya tashkil etildi. Jaloliddin Manguberdi, Sohibqiron Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk sarkarda bobolarimizning jangovar an'analari munosib davom ettirilmoqda.

Ushbu shavkatli ajdodlarimiz o'z zamonasida nafaqat odil hukmdorlar, ayni vaqtda yengilmas qo'shnlarning qo'mondonlari ham bo'lganlar. Ular harbiy qo'shinning kundalik ta'lim-tarbiyasi, jangovarlik holatini ta'minlashga yo'naltirilgan juda ko'p ibratli ishlarni amalga oshirganlar.

Xususan, Jaloliddin Manguberdi Chingizxonga qarshi kurashda qullikdan ko'ra o'limni, mag'lub bo'lishdan ko'ra imon-e'tiqodni yuqori qo'yib, o'z qo'shinidagi vahima va qo'rquvni yo'qota olgan. Shaxsiy namunasi tufayli jasur bobokalonimiz qo'shinidagi vatanparvar jangchilarning bemisl qahramonligi insoniyat irodasi va bardoshining, Vatanga tikilgan jonlarning betakror timsoliga aylangan.

O'z navbatida, Amir Temur hazratlari harbiy xizmatchilarining axloqiy-ruhiy holati bilan shug'ullanadigan maxsus lavozimlarni joriy qilmagan bo'lsalar-da, barcha pog'onadagi harbiy mansabdorlar o'z bo'ysunuvidagi harbiy xizmatchilar ta'lim-tarbiyasi bo'yicha ish olib borishini ta'min etganlar.

Natijada Sohibqiron bobomizning jangovar qo'shini o'zining strategik va taktik mahorati bilan o'sha davrning eng mukammal va kuchli armiyasi hisoblangan. Xususan, qo'shinning ruhiy tarbiyasi, qo'shin tarkibi, boshqaruv shakli, uning jang oldidan saf tuzilishi va joylashtirilishi yuqori darajada tashkillashtirilgani hatto dushman sinchilari tomonidan ham e'tirof etilgan.

Milliy armiyamiz tarixi haqida so'z borganda, 1992 yil 14 yanvardan mamlakatimiz hududida joylashgan barcha harbiy tuzilmalar O'zbekiston Respublikasi yurisdiksiyasiga o'tkazilganini ta'kidlash lozim. O'sha kundan e'tiboran milliy armiyamizga asos solingan.

Shundan so'ng 1991 yil 31 avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi qonun yurtimizga o'z harbiy siyosatini amalga oshirish huquqini berdi. Shuningdek, "O'zbekiston

Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida"gi bayonot mamlakatimiz Qurolli Kuchlarini tuzish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz mudofaa tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Natijada jangovarligi, taktik mahorati jihatidan hech kimdan kam bo'lmagan tezkor va ixcham, zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlangan milliy armiyamiz shakllandi.

Islohotlar samarasi o'laroq, aholi, ayniqsa, yoshlarimiz o'rtasida harbiy xizmatning obro'-e'tibori yuksak darajaga ko'tarildi, Vatan himoyachisi bo'lish har bir yigitning ezgu maqsadiga aylandi. Bugun harbiy xizmat nafaqat burch, balki sadoqat, matonat va jasorat maktabi, milliy armiyamiz esa mamlakatimiz hududiy yaxlitligi va xalqimiz osoyishtaligining ishonchli kafolatidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Qurolli Kuchlarning huquqiy maqomi aniq belgilab berilgan. Asosiy Qonunimizning 52-moddasida mustahkamlab qo'yilganidek, "O'zbekiston Respublikasini himoya qilish – O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar".

Shuning barobarida, mudofaa hamda umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risidagi qonunlar Qurolli Kuchlarimiz tashkiliy-huquqiy asoslarini o'zida mujassam etgan. Shu negizda mamlakatimiz mustaqilligi, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlash, barqaror va izchil demokratik taraqqiyotimizning ishonchli kafolati bo'lgan milliy armiyamizni yanada takomillashtirish yo'lida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugun dunyoning turli mintaqalarida o'zaro nizolar, notinchliklar kuzatilayotgan bir paytda yurtimizda tinchlik-osoyishtalik hukm surmoqda. Iqtisodiyotimiz barqaror rivojlanib, xalqimiz farovonligi yuksalib bormoqda.

Istiqlol yillarida bunday yutuqlar hayotimizning barcha sohalarida bardavom bo'lib kelmoqda. Bularning barchasi, so'zsiz, bizning katta baxtimiz. Bunday muvaffaqiyatlarga erishishda Vatanimiz sarhadlarini tunu kun sergaklik bilan qo'riqlayotgan harbiy xizmatchilarimizning munosib hissasi bor.

Haqiqatan ham, milliy armiyamizni takomillashtirish, mamlakatimiz mustaqilligi, xavfsizligi hamda hududiy yaxlitligini ta'minlash, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilish borasida amalga oshirilayotgan izchil islohotlar tinch, obod va farovon hayot barpo etishimizda o'z samarasini bermoqda. Mamlakatimizda tom ma'noda zamonaviy qurol-yarog', texnika va yetuk harbiy mutaxassislariga ega, eng yuksak talablarga javob beradigan, yurtimiz hududiy yaxlitligining ishonchli kafolati bo'lgan professional Qurolli Kuchlar barpo etildi.

Milliy armiyamiz saflarida xalqimiz farzandlarining sadoqat va fidoyilik bilan xizmat qilishi uchun barcha shart-sharoit yaratildi. Binobarin, Vatanimiz sarhadlarini

qo'riqlash, xalqimiz tinchligi va omonligini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash o'ta mas'uliyatli vazifa hisoblanadi.

Yangicha davr harbiylarimizdan nafaqat jismoniy tayyorgarlikka, balki yuksak aql-idrok, intellektual salohiyat, alohida ma'naviy-ruhiy xususiyat va fazilatlariga ega bo'lishni, axborot-kompyuter texnologiyalari sir-asrorini puxta bilishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, mustaqil davlatimiz Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilariga joriy etilgan qulayliklar sobiq tuzum davridagidan tubdan farq qiladi.

Vatan oldidagi muqaddas burch harbiy xizmatchidan metin iroda, burchga sadoqat, yuksak bilimni talab etishi tayin. Boz ustiga, askarlarimiz qulay shart-sharoitga ega bo'lsa, bu ularni zimmalaridagi burchni yanada mas'uliyat bilan bajarishga undashi tabiiydir. Shu ma'noda, harbiylarimizni ko'rkam turarjoylar bilan ta'minlash yaxshi yo'lga qo'yilgani diqqatni tortadi.

Ayniqsa, keyingi yillarda Qurolli Kuchlarimiz safida xizmat qilayotgan mard va jasur o'g'lonlar hamda ularning oilalari uchun mo'ljallangan ko'plab uy-joylar qurildi. Bunday turarjoylarda yuksak talablar hamda harbiy xizmatchilar va ularning oilalari ehtiyojiga javob beradigan qulay ijtimoiy-maishiy sharoitni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimiz Qurolli Kuchlarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida professional milliy armiyamiz uchun yuqori malakali ofitser kadrlar tayyorlashga jiddiy ahamiyat berilayotganini ta'kidlash farz va qarz, deb o'ylaymiz. Shu maqsadda yurtimizdagi oliy harbiy ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, kursantlar uchun barcha sharoit yaratilmoqda.

Yana bir muhim dalil: "O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qonunga ko'ra, O'zbekiston tinchliksevar siyosat olib boradi: hech qanday harbiy blokka qo'shilmaydi, o'z hududida chet davlatlar harbiy bazalarini joylashtirmaydi. Mamlakatimiz harbiy xizmatchilarining chet-ellardagi harbiy operatsiyalarda ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi.

Vaholanki, ilgari – sobiq sho'rolar tuzumi zamonida yigitlarimiz muddatli harbiy xizmatni O'zbekistondan uzoqlarda, nosog'lom ma'naviy muhit hukmron bo'lgan harbiy qismlarda o'tashga majbur edi. Oqibatda umrining ayni kuchga to'lgan ikki yilini behuda, mazmunsiz o'tkazardi.

Shu bois o'sha davrda muddatli harbiy xizmatga bugungidek istak ham, intilish ham bo'lmagan. Bugun ko'p millatli xalqimiz tinchligi, sarhadlarimiz daxlsizligini asrash ishiga muqaddas burch va yuksak sharaf sifatida qaralayotgani bir paytlar O'zbekistondan olis o'lkalarda askarlik burchini o'taganlarda havas uyg'otmoqda.

Bugun muddatli harbiy xizmatga jismonan va ma'nan sog'lom, yuksak intellektual salohiyatli yoshlar saralab olinmoqda.

Bularning barchasi, o'z navbatida, istiqlol yillarida professional milliy armiyamizni shakllantirish, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolariga munosib

turmush sharoiti yaratish borasida amalga oshirilayotgan izchil ishlar samarasida Qurolli Kuchlarimiz safida xizmat qilish har bir yigit uchun nafaqat burch, balki haqiqiy shon-sharaf ishiga, farzandini armiya saflarida ko'rish esa ota-onalarning orzusiga aylanganidan dalolat beradi.

Eng asosiysi, o'tgan davrda milliy armiyamiz yoshlarning irodasini toblaydigan, ularni o'z Vatani va xalqiga sadoqat ruhida tarbiyalaydigan jasorat va matonat maktabiga aylandi. Farzandlarimizning harbiy xizmatga, boshqacha aytganda, el-yurt tinchligi va osoyishtaligi, osmonimiz musaffoligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlashga bo'lgan qiziqish va intilishi kuchaydi.

Xulosa qilib aytganda, har tomonlama yetuk, jasur va sergak o'g'lonlarimiz azmu shijoatini ko'rganda, ko'nglimiz faxru iftixorga to'ladi. Zero, Vataniga, xalqiga sadoqatli yigitlar xizmat qilayotgan professional armiyamiz – mustaqilligimizning, tinch hamda farovon hayotimizning ishonchli qalqonidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. 2023-yil.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M. Mirziyoyevning Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan yo'llagan tabriklari va Qurolli Kuchlar tizimidagi nutqlari.